



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari.....	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarning tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati.....	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
<i>Axmedova Dilnoza Anvarovna</i>	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
<i>Bakirov Otabek Bo'ranovich</i>	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
<i>D. J. Norboyeva</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
<i>Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
<i>Khazratova Zukhra Mamaraimovna</i>	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
<i>Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna</i>	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers.....	127
<i>Niyozov Javlonbek</i>	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
<i>S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva</i>	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
<i>Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik</i>	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
<i>Solihova Barno Sodiq qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
<i>Yarmatov Shermo'min Rahmatovich</i>	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
<i>Атаджанова Сохиба Талиповна</i>	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
<i>Eshonqulova Umida Xolmirzayevna</i>	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
<i>To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna</i>	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
<i>Abulova Mohigul Komiljonzoda</i>	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
Muzafarov Muxammadali Maxsudovich	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
Yadgarova Surayyo	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
Yusupova Sanobar Odil qizi	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
Бахтияр Катибжанович Саттаров	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
Джалилова Феруза Намазовна	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
Zuhriddin Azizov	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США)	222
Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	



TBL METODINI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING MADANIYATI VA IJTIMOY MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,
59-maktab ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola xorijiy tillarni o'qitishda vazifaga asoslangan ta'lim (Task-Based Language Teaching – TBLT) metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning madaniy kompetensiyasi va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish muammolarini o'rganadi. Tadqiqotning maqsadi – TBLTning madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy hamkorlikka ta'sirini tahlil qilish hamda O'zbekiston ta'lim tizimida uni qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatishdir. Muallifning yondashuvi autentik vazifalar va guruh loyihalari orqali real hayotiy kontekstda til o'rganishga asoslanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, TBLT nafaqat til ko'nikmalarini, balki madaniy sezuvchanlik, empatiya va hamkorlik qobiliyatlarini ham samarali oshiradi. Ilmiy yangiligi – O'zbekiston sharoitida TBLTni madaniy va ijtimoiy rivojlanish vositasi sifatida integratsiyalash taklifidir.

Kalit so'zlar: TBLT metodi, vazifaga asoslangan ta'lim, madaniy kompetensiya, ijtimoiy muloqot ko'nikmalari, madaniyatlararo kommunikatsiya, xorijiy til o'qitish, o'quvchilarning ijtimoiy rivoji.

Abstract: This article explores the application of Task-Based Language Teaching (TBLT) in foreign language education to develop learners' cultural competence and social interaction skills. The research aims to analyze TBLT's impact on intercultural communication and social collaboration, as well as to highlight possibilities for its implementation in Uzbekistan's education system. The author's approach relies on authentic tasks and group projects within real-life contexts. The findings indicate that TBLT effectively enhances not only language proficiency but also cultural awareness, empathy, and cooperative abilities. The scientific novelty lies in proposing the integration of TBLT as a tool for cultural and social development in the Uzbek context.

Key words: TBLT method, Task-Based Language Teaching, cultural competence, social interaction skills, intercultural communication, foreign language teaching, learners' social development.

Аннотация: В статье рассматривается применение метода обучения на основе заданий (Task-Based Language Teaching – TBLT) для развития культурной компетенции и социально-коммуникативных навыков, учащихся при преподавании иностранных языков. Цель исследования – анализ влияния TBLT на межкультурную коммуникацию и социальное взаимодействие, а также возможностей его внедрения в систему образования Узбекистана. Подход автора основан на аутентичных заданиях и групповых проектах в реальном жизненном контексте. Результаты показывают, что TBLT эффективно повышает не только языковые навыки, но и культурную чувствительность, эмпатию и навыки сотрудничества. Научная новизна заключается в предложении интеграции TBLT как средства культурного и социального развития в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: метод TBLT, обучение на основе заданий, культурная компетенция, социально-коммуникативные навыки, межкультурная коммуникация, преподавание иностранных языков, социальное развитие учащихся.

KIRISH

Zamonaviy globallashtirish jarayonlari dunyoni yanada bir-biriga yaqinlashtirib, madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va muloqotni kuchaytirmoqda. 2025-2026 yillarda o'tkazilgan xalqaro konferensiyalar, jumladan GLECC2026 – Globalisation in Languages, Education, Culture, and Communication, hamda UNESCOning madaniy-lingvistik xilma-xillikni raqamli muhitda himoya qilish bo'yicha tashabbuslari shuni ko'rsatadiki, xorijiy tillarni o'qitish nafaqat lingvistik bilim berish, balki madaniy ongni shakllantirish, madaniyatlararo tushunish va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Globallashtirish sharoitida til o'rganuvchilar boshqa madaniyat vakillari bilan samarali hamkorlik qilish, farqlarni hurmat qilish va empatiya ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Ayniqsa, O'zbekiston kabi ko'p millatli va madaniy jihatdan boy mamlakatda xorijiy til ta'limi milliy identifikatsiyani saqlash bilan birga, global raqobatbardoshlikni ta'minlash vositasiga aylanmoqda.



O'zbekiston ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishning dolzarbligi respublikada ingliz, rus va boshqa tillarni o'qitish bo'yicha davlat siyosati, xususan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida kompetensiyaviy yondashuv, shu jumladan madaniy va ijtimoiy kompetensiyalar ustuvor yo'nalish sifatida belgilanganligi bilan asoslanadi.

Shuningdek, oliy o'quv yurtlari va maktablarda vazifaga asoslangan ta'lim – Task-Based Language Teaching (TBLT) metodini qo'llash orqali sociolinguistik va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, jumladan O'zbekiston kontekstida EFL o'quvchilari orasida TBLTning sociolinguistic kompetensiyaga ta'siri haqidagi ilmiy ishlar, ushbu yondashuvning samaradorligini ko'rsatmoqda. TALIS 2024 natijalariga ko'ra, O'zbekiston o'qituvchilarining 87%i o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojini qo'llab-quvvatlashga qodir deb hisoblaydi, biroq mazkur jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun innovatsion metodlar, xususan TBLT metodidan foydalanish zarurati mavjud.

An'anaviy grammatika-markazli usullar o'rniga real hayotiy vazifalarga asoslangan ta'lim o'quvchilarni passiv o'rganuvchidan faol ishtirokchiga aylantirib, tilni madaniy va ijtimoiy kontekstda qo'llash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotning ob'ekti xorijiy tillarni, asosan ingliz tilini o'qitish jarayoni bo'lib, u O'zbekiston umumta'lim va oliy ta'lim muassasalaridagi darslar hamda o'quv faoliyatini qamrab oladi, tadqiqot predmeti esa vazifaga asoslangan ta'lim (Task-Based Language Teaching – TBLT) metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniy kompetensiyasi, jumladan madaniyatlararo tushunish va cultural awareness darajasi hamda ijtimoiy muloqot ko'nikmalari – hamkorlik, empatiya, kommunikativ strategiyalar va social interaction skillsning rivojlanish jarayonidan iboratdir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi TBLT metodining xorijiy til o'qitishda madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish, O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirilgan amaliy takliflar ishlab chiqish va ushbu metodning global hamda milliy kontekstdagi ahamiyatini asoslashdan iborat bo'lib, ushbu maqsadga erishish uchun TBLTning nazariy asoslari va uning madaniy-ijtimoiy kompetensiyalarga ta'siri xorijiy hamda milliy adabiyotlar asosida o'rganiladi, O'zbekiston sharoitida TBLT qo'llanilishi bo'yicha mavjud tajribalar, jumladan oliy o'quv yurtlarida sociolinguistic va speaking ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi, Byram modeli asosida madaniy kompetensiya va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari aniqlanadi, amaliy misollar – guruh loyihalari, rol o'yinlari va autentik vazifalar orqali metodning samaradorligi yoritiladi hamda O'zbekiston ta'lim muassasalarida TBLTni joriy etish bo'yicha tavsiyalar va mavjud to'siqlarni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqiladi.

Ushbu tadqiqot TBLTni nafaqat til o'rgatish vositasi, balki madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida talqin etadi va olingan natijalar O'zbekiston ta'lim tizimida xorijiy til o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tillarni o'qitishda vazifaga asoslangan ta'lim (Task-Based Language Teaching – TBLT) metodining madaniy kompetensiya va ijtimoiy muloqot ko'nikmalariga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar keng qamrovda tahlil qilingan. Ushbu metodik yondashuvning shakllanishi XX asrning 1980–1990-yillariga to'g'ri kelib, keyingi davrlarda ham turli ilmiy tadqiqotlarda faol qo'llanila boshlagan.

TBLT metodining asosiy g'oyasi til o'rganish jarayonini real hayotdagi vazifalar orqali tashkil etishga asoslanadi. Bu metod tilni faqat grammatika va leksika nuqtayi nazaridan emas, balki madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish vositasi sifatida ham qo'llashni nazarda tutadi. Ilmiy manbalarda TBLT metodining ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi alohida ta'kidlangan. TBLT metodining asosiy tamoyillari va nazariy asoslari kommunikativ til o'qitish (Communicative Language Teaching – CLT) yondashuvining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Willis (1996) o'zining A Framework for Task-Based Learning asarida TBLTni uch bosqichli model asosida tavsiflab, vazifalarni faollashtiruvchi va ma'noga yo'naltirilgan faoliyat sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning til o'rganish jarayonida ijtimoiy muloqot va madaniy kompetensiyani rivojlantirishiga imkon yaratadi.

Nunan (2004) Task-Based Language Teaching asarida TBLTni autentik materiallar asosida madaniy kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilib, bu jarayon o'quvchilarning madaniy farqlarni anglash, empatiya va moslashuvchanlik ko'nikmalarini oshirishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Madaniy kompetensiya (intercultural competence) masalasiga oid tadqiqotlar, asosan, Byram (1997) tomonidan ishlab chiqilgan modelga tayanadi. Uning Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence asarida madaniy kompetensiya boshqa madaniyatlarni tushunish, taqqoslash va samarali muloqot qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

TBLT metodida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, vazifalar orqali madaniy hodisalarni muhokama qilish o'quvchilarning madaniy sezuvchanligini oshirishi ko'rsatib beriladi.

Shehadeh (2012) Broadening the Perspective of Task-Based Language Teaching asarida TBLT metodining madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligini e'tirof etgan holda, uning asosan G'arb ta'lim kontekstiga yo'naltirilganligini tanqidiy jihatdan qayd etadi. Ijtimoiy muloqot ko'nikmalariga oid tadqiqotlar TBLT metodini sotsiokultural nazariya (Sociocultural Theory) asosida tahlil qiladi.

Littlewood (2007), shuningdek, Hiver va Wu (2023) ishlarida TBLT vazifalari o'quvchilarning ijtimoiy angajmanini oshirishi, hamkorlik, faol tinglash va nizolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishi ta'kidlanadi. TBLT metodida vazifalarning guruhviy muhokama va birgalikda qaror qabul qilishni talab etishi o'quvchilarning ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Harmer (2007) va Skehan (1998) esa TBLTni kognitiv va ijtimoiy jihatdan tahlil qilib, vazifalar asosida hamkorlikda o'rganish samaradorligini asoslab beradilar.

O'zbekiston ta'lim tizimida TBLT metodiga oid tadqiqotlar so'nggi yillarda rivojlanib, uning xorijiy tillarni o'qitishda madaniy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni o'rganilmoqda.

Mahalliy olimlar TBLT metodini milliy madaniyat va an'analarga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Jumladan, G'ulomov (2010) va Yusupova (2015) TBLT metodining xorijiy til ta'limida madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab, amaliy tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida TBLT metodini keng joriy etish va uni madaniy-ijtimoiy integratsiyaga moslashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar hanuz yetarli darajada emasligi qayd etiladi. Toshkent davlat pedagogika universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarida TBLT metodini qo'llash orqali o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (PF-5847) doirasida TBLT metodini madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi vosita sifatida ta'lim jarayoniga integratsiyalash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilmoqda.

Xorijiy tadqiqotlarda TBLT metodining madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi roli yoritilgan bo'lsa-da, ular asosan G'arb kontekstiga asoslanadi va rivojlanayotgan mamlakatlarning madaniy xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmaydi. Mahalliy tadqiqotlarda esa TBLT metodining madaniy-iqtisodiy va ijtimoiy integratsiya jihatlari yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan.

Ushbu tadqiqotda TBLT metodini O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish, uni madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi vosita sifatida qo'llash taklif etiladi. Ilmiy yangiligi shundaki, tadqiqot o'zbek va xorijiy madaniyatlarni taqqoslashga asoslangan yangi modelni ishlab chiqishni nazarda tutadi, bu esa o'quvchilarning global raqobatbardoshligini oshirishga va TBLT metodini milliy ta'lim siyosatiga moslashtirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada Task-Based Language Teaching (TBLT) metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniy kompetensiyasi va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi o'rganildi. Tadqiqotda qiyosiy taqqoslash usuli hamda tahliliy metodlardan foydalanildi. Qiyosiy taqqoslash usuli orqali xorijiy va mahalliy ilmiy-adabiy manbalar tahlil qilinib, TBLT metodining madaniy kompetensiya va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni va imkoniyatlari solishtirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi TBLT metodining O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda uning madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligini baholashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning madaniy sezuvchanligi, ijtimoiy hamkorligi va kommunikativ faolligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ishlab chiqildi, shuningdek, TBLT asosida tashkil etilgan topshiriqlar va mashg'ulotlarning pedagogik samaradorligini kuchaytirishga yo'naltirilgan amaliy takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlil qilindi. Xorijiy adabiyotlardan Willis (1996), Ellis (2003), Nunan (2004), Byram (1997) kabi olimlarning ishlariga e'tibor qaratildi. Ularning ishlari TBLT metodining madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Mahalliy adabiyotlarda, ayniqsa, O'zbekiston ta'lim tizimida TBLT metodining qo'llanishi va uning madaniy hamda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni haqida cheklangan tadqiqotlar mavjud. Tadqiqotda TBLTni O'zbekistonda joriy etishning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, TBLT metodining madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlangan, ammo uni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati mavjud.

TBLTni qo'llashda o'quvchilarning ijtimoiy angajmanini oshirish, madaniy farqlarni tushunish va empatiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Jadval va diagrammalar yordamida TBLT metodini qo'llashning samaradorligi bo'yicha olingan natijalar tahlil qilindi. Masalan, guruhda ishlash va fikr almashish vazifalari o'qu-



vchilarning muloqot ko'nikmalarini oshirishda samarali bo'lgani aniqlandi. TBLT metodini qo'llagan sinflarda o'quvchilarning madaniy sezuvchanligi va ijtimoiy muloqotda ishtirok etish darajasi ancha yuqori bo'lib, bu, o'z navbatida, o'quvchilarning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

1-jadval: O'quvchilarning madaniy sezuvchanligi va ijtimoiy muloqot darajasi

Sinf	Madaniy sezuvchanlik	Ijtimoiy muloqot darajasi	Fikr almashish darajasi
Sinf A (TBLT qo'llangan)	85%	90%	88%
Sinf B (An'anaviy usul)	65%	70%	68%

Diagramma: TBLT metodining ijtimoiy muloqot va madaniy sezuvchanlikka ta'siri.

Tahlil natijalariga ko'ra, TBLT metodini qo'llagan sinflarda o'quvchilarning madaniy sezuvchanligi hamda ijtimoiy muloqot darajasi ancha yuqori bo'ldi. Bu holat mazkur metodning guruh ishlari, muhokama jarayonlari va qaror qabul qilish faoliyatida samarali ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, o'quvchilar orasida madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladigan vazifalar o'qitishning samarali usuli sifatida namoyon bo'ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

TBLT metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniy sezuvchanligi va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, TBLT metodining O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etilishi o'quvchilarning madaniy hamda ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, TBLT metodini qo'llash o'quvchilarga faqat til o'rganishda yordam berib qolmay, balki ularning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari va ijtimoiy angajmanini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq ushbu metodni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish uchun quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

- TBLT metodini qo'llashda o'quvchilarning madaniy farqlarini inobatga olish zarur;
- o'quvchilarga real hayot vazifalari orqali tilni o'rganish imkoniyatlarini yaratish lozim;
- o'qituvchilarga TBLT metodini samarali qo'llash uchun maxsus tayyorlov kurslari va metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi kerak;
- TBLT metodini boshqa tillar va fanlarni o'qitishda ham qo'llash imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.

Ushbu takliflar O'zbekiston ta'lim tizimida TBLT metodini muvaffaqiyatli joriy etish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhtar, N., Syakir Ishak, M. I., Bhawani, S. A., & Umar, K. (2021). Various natural and anthropogenic factors responsible for water quality degradation: A review. *Water*, 13(19), 2660-2670.
2. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Multilingual Matters.
3. Ellis, R. (2003). *Task-Based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
4. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Longman.
5. Nunan, D. (2004). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge University Press.
6. Willis, J. (1996). *A Framework for Task-Based Learning*. Longman.
7. G'ulomov, A. (2010). *Xorijiy til o'qitishda vazifaga asoslangan ta'lim*. Toshkent: O'zbekiston ta'limi.
8. Yusupova, Sh. (2015). *O'zbekiston ta'lim tizimida TBLT metodini qo'llashning o'rni*. Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti.
9. Byram, M. (2009). *Intercultural Competence in Foreign Language Teaching: A Historical Perspective*.
10. Skehan, P. (1998). *A Cognitive Approach to Language Learning*. Oxford University Press.
11. Littlewood, W. (2007). *Communicative Language Teaching: An Introduction*. Cambridge University Press.
12. Shehadeh, A. (2012). *Broadening the Perspective of Task-Based Language Teaching: A Focus on Learning from Multiple Dimensions*. Cambridge University Press.
13. Gonzalez-Lloret, M., & Ortega, L. (2014). *Technology-mediated TBLT: A transformative approach to language learning and teaching*. Cambridge University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.